

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING PROFILAKTIK HISOBGA OLINGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASHFAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMALAR VA ULARNI QO'LLASH AMALIYOTI**

*Sobirov Kamoliddin Bobir o'g'li*

*IIVAkademiyasi 3-o'quv kursi 307-guruh kursanti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyoti shuningdek, mana shu normalardan foydalanib ushbu faoliyatni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritib o'tilgan.*

***Annotation:** This article highlights the norms governing the activities of preventive inspectors working with persons who are taken into account prophylactically and the practice of their application, as well as the main directions for improving these activities using these norms*

***Kalit so'zlar:** Huquqbuzarlik, norma, g'ayri ijtimoiy xulq-atvor, yakka tartibdagi profilaktika, profilaktik suhbat, muddat, profilaktik hisob*

***Keywords:** Violation, norm, anti-social behavior, individual prevention, preventive conversation, term, preventive accounting*

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyatini samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, [www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-son qarorida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu hujjatda qonuniylik ahvolini va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora tadbirlarning samaradorligini atroflicha muhokama qilish uchun joylarda, birinchi navbatda kriminogen vaziyat nomaqbul bo'lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarini hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish masalalari belgilab berildi.<sup>2</sup>

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini tashkil etishning huquqiy asoslarini o'rganish, tahlil qilish va uni amalda qo'llash huquq nazariyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktika xizmati faoliyatini, jumladan profilaktik hisobda turuvchi shaxslar bilan ishlash faoliyatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli qaror va buyruqlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi normalari davlat hokimiyati organlari, turli xil mulk shakliga asoslangan korxonalar, tashkilot va muassasalar, jamoat tashkilotlari, boshqaruv organlari va fuqarolar oldiga Konstitusiya va qonunlar bilan belgilangan vakolatlar doirasida jamiyatda osoyishtalikni, huquq-

---

erkinliklarivaqonuniymanfaatlariniishonchlihimoyaqilishnita'minlashdaularningmas'uliyatinikuchaytirishchoratadbirlarito'g'risida»gi PF-5005-son Farmoni // URL: <http://www.lex.uz>.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2833-sonli qarori // URL: <http://www.lex.uz>

targ'ibotni ta'minlash, barchaturdagi salbiy illatlarning, shu jumladan huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish talabini qo'yadi. Huquqbuzarliklar va ular bilan bog'lik bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish bo'yicha talablar Konstitusiyaning ko'pgina normalarida ifodalangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"<sup>3</sup>. Ya'ni ushbu moddaga asosan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktik xizmati fuqarolarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularning buzilishlariga yo'l qo'ymaslik, huquqbuzarliklar va ularni kelib chiqish sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun mas'uldirlar.

Profilaktika xizmatlarining profilaktik xisobda turuvchi shaxslar bilan ishlash faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalardan yana biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Mamuriy Javobgarlik to'g'risidagi Ko'deksi hisoblanadi. Maskur Ko'dekisning 2-moddasida "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik son va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'zvaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi."

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu Kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdorshaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.<sup>4</sup>

Ushbu moddaga asosan huquqbuzarliklarning oldini olish bo'limlari ishlarni o'z vaqtida ko'rib chiqishlarini huquqbuzarliklarning oldini olishlarida va ma'muriy jazo choralarini qo'llashda qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy

---

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <http://www.lex.uz>

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi <http://www.lex.uz>

huquqbuzarlik hisoblanishini hamda ishni qaysi organga tegishliligini va qaytartibda qanday ma'muriy jazo qo'llashlarini belgilab beradi.

Profilaktika inspektorining profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator normativ e hujjatlarning mazmunini o'rganishimiz mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-sonli farmoni<sup>5</sup> ichki ishlar organlari tizimida, xususan, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida tub islohotlarning yangi bosqichini boshlab berish bilan bir qatorda huquqbuzarliklar barvaqt profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatini samarali tashkil etish hamda profilaktika inspektorlarining ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarini belgilab berdi;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833sonli qarori<sup>6</sup> asosida Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimi yaratildi. Bu esa, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularning profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etishga xizmat qilmoqda;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida faoliyatini tubdan

---

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyatini samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-son Farmoni // URL: <http://www.lex.uz>

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2833-sonli qarori // URL: <http://www.lex.uz>

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2896-sonli qarori<sup>7</sup> asosida ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar barvaqt profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyati va oldini olish bo'yicha faoliyati tubdan isloh qilindi. Mazkur qaror bilan profilaktika inspektorlariga quyidagi vazifalar belgilab berildi:

Huquqbuzarliklar profilaktikasini, ayniqsa voyaga etmaganlar va yoshlar o'rtasida tashkil etish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini, ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish va bartaraf etish; jinoyatlarni aniqlash, bartaraf etish va foshetishda, tergov va suddan yashirinib yurgan shaxslarni, shuningdek bedarak yo'qolgan fuqarolarni qidirishda ishtirok etish; 100% voyaga etmaganlar va yoshlar bilan ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yosh avlodni terrorizm, diniyekstremizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish; aholi bilan uning eng muhim muammolarini hal etish va ijtimoiy keskinlikni yumshatish masalalarida to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqotni yo'lga qo'yish; huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning, g'ayrijtimoiy xulq-atvorgaega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va moslashuvini ta'minlash;

Huquqbuzarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish masalalari bo'yicha ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari, davlat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshirish.

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevralda "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-3528-sonli qarori<sup>8</sup> qabul qilinib, jamoat tartibini saqlash, avvalambor, voyaga

---

<sup>7</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi

«Ichki ishlar organlarining Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2896-sonli qarori// URL:<http://www.lex.uz>

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevralda «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash,

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi PQ-3528-sonli qarori// URL:<http://www.lex.uz>

yetmagan va yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg'unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash bo'yicha yakdil harakatlarni, ularni hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda;

5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 yanvardagi "Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 15-son qarori<sup>9</sup> asosida fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi belgilab berildi.

Profilaktika profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatida muhim o'rin tutuvchi O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlarini keltirib o'tish joiz.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"<sup>10</sup>gi O`RQ-371 sonli qonunining qabul qilinishi bir qator profilaktik sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga bevosita xizmat qildi. Jumladan, ushbu qonun bilan huquqbuzarliklarning profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyati turlari va chora-tadbirlari, huquqbuzarliklarning profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyati tizimi va ularning vakolatlari, profilaktik hisobga olish tartibi va asosiy yo'nalishlari, muddati, profilaktik hisobga olishning tartibi va chiqarish asoslari kabi qoidalar mustahkamlab qo'yildi.

Mazkur qonun bilan Huquqbuzarliklar profilaktikasi deganda – huquq tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va

---

<sup>9</sup>O'zbekiston Respublikasi VMning 2018 yil 8 yanvardagi

«Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 15-son qarori// URL:<http://www.lex.uz>

<sup>10</sup>O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuni// URL:  
<http://www.lex.uz>

viktimologik profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi belgilab berildi.

Yuqorida qayd etilgan huquqiy asoslar ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari tomonidan profilaktik hisoblarni yuritishni tashkil etishga, ularni yuritishga va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan ushbu toifadagi shaxslar bilan profilaktika ishlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <http://www.lex.uz>
- 2.O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <http://www.lex.uz>
- 3.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. . <http://www.lex.uz>
- 4.O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuni// URL:<http://www.lex.uz>;
- 5.O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonuni// URL:<http://www.lex.uz>
- 6.O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabdagi «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuni// URL:<http://www.lex.uz>
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchl ihmoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-son Farmoni // URL:<http://www.lex.uz>.
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–2833-sonli qarori. [www.lex.uz/](http://www.lex.uz/)
- 9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar [www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2896-sonli qarori.

<http://www.lex.uz>

10.O'zbekiston Respublikasi VMning 2018 yil 8 yanvardagi «Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 15-son qarori. <http://www.lex.uz>